Akademik xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha OMMAVIY OFERTA	PUBLIC OFFER on provision of academic services
Versiya: 2026-1 Kuchga kirish sanasi: 01.01.2026 y. Toshkent sh.	Version: 2026-1 Effective date: 01.01.2026 Tashkent city
“Tashkent Metropolitan University” MChJ, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan va faoliyat yurituvchi, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 209a manzilida ro'yxatga olingan, Ustav asosida Rektor Djalilov B.Sh. tomonidan yuritiluvchi, keyingi o'rinlarda «Universitet» deb ataluvchi, bir tomondan,	“Tashkent Metropolitan University” LLC, an entity organized and existing under the laws of the Republic of Uzbekistan, having its registered office at 209a Parkent street, Mirzo Ulugbek district, Tashkent city, Republic of Uzbekistan, represented by Rector Mr. Djalilov B.Sh., acting under the Charter, hereinafter the “University”, on the one side,
jismoniy shaxs, keyingi o'rinlarda «Talaba» deb ataluvchi, ikkinchi tomondan, va	an individual, hereinafter the “Student”, on the second side, and
jismoniy yoki yuridik shaxs, keyingi o'rinlarda «To'lovchi» deb ataluvchi, uchinchi tomondan,	an individual or legal entity, hereinafter the “Payer”, on the third side,
bundan keyin birgalikda «Taraflar», alohida esa «Taraf» deb ataluvchilar, tmuni.org veb-saytida (https://tmuni.org/tuition-fees/) (keyingi o'rinlarda – «Sayt») joylashtirilgan akademik xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha ushbu Ommaviy Ofertani (keyingi o'rinlarda – «Oferta») O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq quyidagi shartlarda tuzdilar:	hereinafter collectively the “Parties” and separately a “Party”, have concluded this Public Offer on the provision of academic services (hereinafter the “Offer”) published on the tmuni.org website (https://tmuni.org/tuition-fees/) (hereinafter the “Site”) in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan on the following terms:
1. PREAMBULA	**1. PREAMBLE**
1.1. Ushbu hujjat O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 369-moddasi 2-bandiga muvofiq Universitetning rasmiy Ofertasi bo'lib, unda ommaviy ofertaning barcha muhim shartlari mavjud.	1.1. In accordance with paragraph 2 of Article 369 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, this document is the official Offer of the University and contains all essential terms of a public offer.
1.2. Ushbu Oferta shartlarini qabul qilgan yuridik va/yoki jismoniy shaxs (shu jumladan voyaga yetgan Talaba) O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 370-moddasi 4-bandiga muvofiq Ofertani akseptlagan hisoblanadi va To'lovchiga aylanadi.	1.2. A legal entity and/or individual (including a Student of legal age) who accepts the terms of this Offer is deemed to have accepted the Offer in accordance with paragraph 4 of Article 370 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan and becomes the Payer.
1.3. Akademik va boshqa xizmatlar faqat ushbu Oferta shartlari asosida ko'rsatiladi. Qabul jarayoni muvaffaqiyatli yakunlanib, 4.6.1-bandda ko'rsatilgan joyni band qilish to'lovi amalga oshirilgan paytdan boshlab Oferta akseptlangan hisoblanadi.	1.3. Academic and other services are provided solely under the terms of this Offer. The Offer is deemed accepted upon successful completion of the admission process and payment of the seat reservation fee under clause 4.6.1.
2. OFERTA PREDMETI	**2. SUBJECT OF THE OFFER**
2.1. Universitet ushbu Oferta shartlariga muvofiq Talabaga Saytda (https://tmuni.org/tuition-fees/) ko'rsatilgan yo'nalishlardan birida kunduzgi shaklda oliy ma'lumot olish uchun akademik va boshqa xizmatlarni ko'rsatadi.	2.1. Under the terms of this Offer, the University provides the Student with academic and other services for obtaining full-time higher education in one of the programmes listed on the Site (https://tmuni.org/tuition-fees/).
2.2. Ushbu Oferta bo'yicha oliy ma'lumot olish deganda Talabaning tegishli fakultetning standart ta'lim dasturini	2.2. Obtaining higher education under this Offer means the Student's successful completion of the standard

Universitetda muvaffaqiyatli o'zlashtirishi tushuniladi (Qabul nizomi: https://tmuni.org/local-students/).	programme of the corresponding faculty at the University (Admission Guide: https://tmuni.org/local-students/).
2.3. O'qish muddati Talaba har bir o'quv yili uchun tanlagan o'quv kreditlarini hisobga olgan holda 3 (uch) yildan 6 (olti) akademik yilgacha.	2.3. Period of study: from 3 (three) to 6 (six) academic years, depending on the study credits chosen by the Student for each academic year.
2.4. Talaba har bir kursni muvaffaqiyatli tugatgan hamda ushbu Oferta va Universitetning ichki tartib-qoidalariga rioya qilgan taqdirda, Universitet belgilangan tartibda o'qishni to'liq tamomlaguniga qadar keyingi kursda o'qishni davom ettirishni ta'minlaydi.	2.4. Provided the Student successfully completes each course and complies with this Offer and the University's internal regulations, the University ensures, in the established procedure, the continuation of studies in the next course until completion of studies.
2.5. Talabalarga stipendiya to'lanmaydi.	2.5. No scholarship is paid to Students.
2.6. Talaba Universitet va akademik xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni Sayt, korporativ elektron pochta va Google Classroom tizimi orqali oladi.	2.6. The Student receives information about the University and academic services through the Site, corporate e-mail and the Google Classroom system.
3. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI	**3. RIGHTS AND OBLIGATIONS OF THE PARTIES**
3.1. UNIVERSITETNING MAJBURIYATLARI:	**3.1. THE UNIVERSITY IS OBLIGED TO:**
3.1.1. Universitetning ichki tartib-qoidalarida nazarda tutilgan o'qish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;	3.1.1. provide the necessary conditions for study as stipulated by the University's internal regulations;
3.1.2. Talabaning O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida nazarda tutilgan huquqlarini erkin amalga oshirishini hamda Universitet akademik nizomi va boshqa tartib-qoidalariga muvofiq majburiyatlarini bajarishini ta'minlash;	3.1.2. ensure the Student's free exercise of the rights under the Law of the Republic of Uzbekistan “On Education” and performance of the obligations under the University's academic regulations and other regulations;
3.1.3. Qabul nizomiga muvofiq eng yaxshi talabalarni aniqlash;	3.1.3. determine the best students in accordance with the Admission Regulation;
3.1.4. Akademik nizomga muvofiq har semestr yakunida akademik o'zlashtirish natijalarini taqdim etish;	3.1.4. provide academic performance results at the end of each semester in accordance with the Academic Regulation;
3.1.5. yuridik yoki pochta manzili, bank rekvizitlari, nomi, tashkiliy-huquqiy shakli yoki ushbu Oferta bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan boshqa holatlar o'zgarganda, bu haqdagi ma'lumotni o'zgarish sanasidan boshlab 3 (uch) kun ichida Saytda e'lon qilish. Universitet Talabaning Saytda e'lon qilingan ma'lumotlar bilan o'z vaqtida tanishmaganligi uchun javobgar emas.	3.1.5. publish on the Site, within 3 (three) days of the change, information on changes of its legal or postal address, bank details, name, legal form or other circumstances that may affect performance of obligations under this Offer. The University is not responsible for the Student's failure to familiarize himself/herself in time with information published on the Site.
3.2. UNIVERSITETNING HUQUQLARI:	**3.2. THE UNIVERSITY IS ENTITLED TO:**
3.2.1. Talaba va To'lovchining shartnomaviy majburiyatlarini bajarishi ustidan doimiy monitoring olib borish;	3.2.1. continuously monitor the performance of contractual obligations by the Student and the Payer;
3.2.2. Talaba va/yoki To'lovchidan ushbu Oferta shartlariga muvofiq o'qish uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirishni talab qilish;	3.2.2. require the Student and/or the Payer to pay tuition on time in accordance with this Offer;
3.2.3. Talaba va/yoki To'lovchi Oferta shartlarini buzgan va/yoki to'lovni 4.6-bandda belgilangan muddatlarda	3.2.3. terminate the Offer unilaterally by decision of the University's management if the Student and/or the Payer

amalga oshirmagan taqdirda, Universitet rahbariyatining qaroriga ko'ra Ofertani bir tomonlama bekor qilish;	breaches its terms and/or fails to pay within the deadlines set in clause 4.6;
3.2.4. to'lov muddati o'tkazib yuborilganda quyidagi choralarni qo'llash: 10 (o'n) ish kunidan ortiq kechiktirilganda – 4.15-bandga muvofiq bog'langan bank kartasidan qarz summasini yechib olish; 30 (o'ttiz) kalendar kunidan ortiq kechiktirilganda – Talabani mashg'ulotlar va imtihonlardan vaqtincha chetlashtirish; 60 (oltmish) kalendar kunidan ortiq kechiktirilganda – Talabani o'qishdan chetlashtirish to'g'risida buyruq chiqarish. Vaqtincha chetlashtirish yoki o'qishdan chetlashtirish qarzni to'lash majburiyatidan ozod qilmaydi (6.6-band);	3.2.4. apply the following measures in case of late payment: overdue more than 10 (ten) working days – debit of the overdue amount from the linked bank card under clause 4.15; overdue more than 30 (thirty) calendar days – temporary suspension of the Student from classes and examinations; overdue more than 60 (sixty) calendar days – order on expulsion of the Student. Suspension or expulsion does not release from the obligation to pay the debt (clause 6.6);
3.2.5. o'qish to'lovi bo'yicha qarzdorlik yuzaga kelganda yoki Talaba o'quv yili davomida imtihonlarga kirish uchun zarur bo'lgan minimal o'quv soatlariga rioya qilmaganda, Talabani imtihonlarga qo'ymaslik. Imtihonga kirish uchun zarur o'quv soatlari miqdori Universitetning ichki qoidalari bilan belgilanadi;	3.2.5. restrict the Student's access to examinations in case of tuition arrears or failure to meet the minimum number of study hours during the academic year required for admission to examinations. The required number of study hours is set by the University's internal rules;
3.2.6. o'qish to'lovi o'z vaqtida to'lanmaganda yoki Ofertada nazarda tutilgan majburiyatlar buzilganda, Talabaning Universitet binosi va o'quv resurslaridan foydalanishini cheklash hamda penya undirish;	3.2.6. restrict the Student's access to the University's building and learning resources and charge penalties in case of late payment or breach of obligations under this Offer;
3.2.7. o'qish to'lovi, penya va yetkazilgan zarar uchun kompensatsiya to'liq to'languniga qadar Universitet tomonidan beriladigan hujjatlarni – akademik ma'lumotnoma (transkript), ma'lumotnomalar, 3.4.3-bandda ko'rsatilgan hujjat va diplomni berishni to'xtatib turish;	3.2.7. suspend the issue of documents issued by the University – transcripts, reference letters, the certificate of partial completion under clause 3.4.3 and the diploma – until tuition, penalties and compensation for damage are paid in full;
3.2.8. 3.1.3 va 3.1.4-bandlarga muvofiq eng yaxshi talabalarni keyingi semestr uchun o'qish to'lovidan to'liq yoki qisman ozod qilish;	3.2.8. fully or partially exempt the best Students from tuition for the following semester in accordance with clauses 3.1.3 and 3.1.4;
3.2.9. o'quv jadvali, professor-o'qituvchilar, mashg'ulotlar o'tkaziladigan joy va o'quv rejasini davlat ta'lim standartlari doirasida o'zgartirish; bunday o'zgarishlar Ofertaning buzilishi hisoblanmaydi va to'lov miqdorini kamaytirishga asos bo'lmaydi;	3.2.9. change the class schedule, teaching staff, venue of classes and curriculum within state educational standards; such changes do not constitute a breach of the Offer and are not grounds for reducing the fee;
3.2.10. muddati o'tgan qarzni talab qilish huquqini qonunchilikka muvofiq uchinchi shaxslarga o'tkazish;	3.2.10. assign the right to claim overdue debt to third parties in accordance with the law;
3.2.11. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Universitet ichki hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.	3.2.11. exercise other rights provided by the legislation of the Republic of Uzbekistan and the University's internal regulations.
3.3. TALABANING MAJBURIYATLARI:	**3.3. THE STUDENT IS OBLIGED TO:**
3.3.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida oliy ta'lim muassasalari talabalariga qo'yiladigan talablar hamda Universitetning o'quv jarayoni va faoliyatini tartibga soluvchi ichki qoidalariga muvofiq ta'lim olish;	3.3.1. study in accordance with the requirements for students of higher education institutions under the legislation of the Republic of Uzbekistan and the University's internal regulations governing the learning process and activities of the University;

3.3.2. Akademik nizom, Talabalarning xulq-atvor kodeksi, Talabaning Universitet hududidagi xatti-harakatlarini tartibga soluvchi boshqa ichki hujjatlar va umume'tirof etilgan xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish;	3.3.2. comply with the Academic Regulation, the Student Code of Conduct, other internal documents governing the Student's behaviour on the University's premises, and generally accepted standards of behaviour;
3.3.3. Universitet mulkidan ehtiyotkorlik bilan foydalanish va yetkazilgan zararni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qoplash;	3.3.3. use the University's property with due care and compensate any damage caused in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan;
3.3.4. kirish imtihonlari natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 10 (o'n) kalendar kun ichida o'rta yoki o'rta maxsus ma'lumot to'g'risidagi hujjat (attestat va/yoki diplom) va boshqa talab qilinadigan hujjatlarning nusxalarini taqdim etish. Universitet hujjatlarni davlat elektron axborot tizimlari orqali tekshiradi va asl nusxani ko'zdan kechirish uchun so'rashi mumkin; bunday holda asl nusxa o'sha kunning o'zida qaytariladi;	3.3.4. within 10 (ten) calendar days after the announcement of admission results, submit copies of the certificate of secondary or secondary specialized education (certificate and/or diploma) and other requested documents. The University verifies the documents through the state electronic information systems and may request the original for inspection, in which case the original is returned on the same day;
3.3.5. agar Talaba 3.2.8-bandga muvofiq o'qish to'lovidan ozod qilinmagan bo'lsa, ushbu Oferta va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq o'qish uchun to'lovni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish;	3.3.5. pay tuition on time and in full in accordance with this Offer and the legislation of the Republic of Uzbekistan, unless exempted under clause 3.2.8;
3.3.6. tijorat banki bilan o'qish uchun kredit shartnomasi tuzilgan taqdirda, u barcha taraflar tomonidan rasmiylashtirilgandan so'ng shartnomaning asl nusxasini Universitetning yuridik bo'limiga taqdim etish;	3.3.6. if a tuition loan agreement is concluded with a commercial bank, provide the original of the agreement to the University's Legal Department after its execution by all parties;
3.3.7. Universitetning ichki tartib-qoidalariga muvofiq kirishni nazorat qilish rejimi va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya qilish;	3.3.7. comply with the access control regime and fire safety rules in accordance with the University's internal regulations;
3.3.8. Universitetning rasmiy aloqa kanallari – Sayt, korporativ elektron pochta va Google tizimi orqali tarqatilayotgan yangiliklarni kuzatib borish. Universitet Talabaning ma'lumotdan bexabarligi va buning natijasida Akademik nizom, ichki tartib-qoidalar va boshqa ichki hujjatlar talablarini o'z vaqtida bajarmasligi uchun javobgar emas.	3.3.8. follow the news distributed through the University's official channels: the Site, corporate e-mail and the Google system. The University is not responsible for the Student's lack of information and the resulting failure to meet in time the requirements of the Academic Regulation, internal regulations and other internal documents.
3.4. TALABANING HUQUQLARI:	**3.4. THE STUDENT IS ENTITLED TO:**
3.4.1. o'qish jarayoni bilan bog'liq masalalar bo'yicha Universitet ma'muriyatiga murojaat qilish;	3.4.1. approach the University administration on matters relating to the learning process;
3.4.2. kutilmagan holatlar yuzaga kelganda, tegishli fakultet nizomida belgilangan muddatga akademik ta'til berish to'g'risida Universitetga yozma ravishda murojaat qilish;	3.4.2. in unforeseen circumstances, apply to the University in writing for academic leave for the period set in the corresponding Faculty Regulation;
3.4.3. o'qishdan chetlatilganda yoki o'z xohishiga ko'ra o'qishni to'liq tamomlamasdan to'xtatganda, o'zlashtirilgan kreditlar asosida ta'lim dasturining bir qismini o'zlashtirganligi to'g'risidagi hujjatni olish;	3.4.3. in case of expulsion or discontinuation of studies at his/her own will before completion, receive a document on partial completion of the educational programme based on credits completed;
3.4.4. tegishli fakultetning o'quv rejasini muvaffaqiyatli tamomlaganda, davlat standartlariga muvofiq diplom olish.	3.4.4. upon successful completion of the curriculum of the corresponding faculty, receive a diploma complying with state standards.
3.5. TO'LOVCHINING MAJBURIYATLARI:	**3.5. THE PAYER IS OBLIGED TO:**

3.5.1. ushbu Oferta va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq o'qish uchun to'lovni o'z vaqtida va to'liq amalga oshirish;	3.5.1. pay tuition on time and in full in accordance with this Offer and the legislation of the Republic of Uzbekistan;
3.5.2. agar qabul vaqtida Talaba voyaga yetmagan bo'lsa, Universitet 4.6.1-banddagi to'lovni amalga oshirgan voyaga yetgan jismoniy shaxs yoki yuridik shaxsni To'lovchi deb hisoblaydi. Bunday To'lovchi to'lov hujjatlarida o'zining to'liq ismi-sharifi (nomi), pasport ma'lumotlari (yuridik shaxs uchun – STIR) va telefon raqamini ko'rsatishi shart;	3.5.2. if the Student has not reached legal age at the time of admission, the University deems the adult individual or legal entity who made the payment under clause 4.6.1 to be the Payer. Such Payer must state in the payment documents its full name, passport details (for a legal entity – TIN) and telephone number;
3.5.3. Talaba voyaga yetgan paytdan boshlab, agar Universitet bilan yozma ravishda boshqacha kelishilmagan bo'lsa, u ham ushbu Oferta bo'yicha To'lovchi hisoblanadi. To'lovchi Talaba voyaga yetgunga qadar to'lov muddati kelgan summalar uchun javobgarligicha qoladi; shu sanadan boshlab Talaba va To'lovchi solidar javobgar bo'ladi, To'lovchi Universitetni yozma ravishda xabardor qilgan hollar bundan mustasno – bunday xabarnoma keyingi semestrdan boshlab kuchga kiradi.	3.5.3. from the moment the Student reaches legal age, the Student also becomes a Payer under this Offer, unless otherwise agreed with the University in writing. The Payer remains liable for amounts that fell due before the Student reached legal age; from that date the Student and the Payer are jointly liable, unless the Payer notifies the University in writing, in which case the notice takes effect from the next semester.
3.6. TO'LOVCHINING HUQUQLARI:	**3.6. THE PAYER IS ENTITLED TO:**
3.6.1. Talabaning o'z majburiyatlarini bajarishi yuzasidan yillik monitoring o'tkazish.	3.6.1. conduct annual monitoring of the Student's fulfilment of obligations.
3.7. TALABA VA TO'LOVCHI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR	**3.7. RELATIONS BETWEEN THE STUDENT AND THE PAYER**
3.7.1. Talaba va To'lovchi o'rtasidagi majburiyatlar ularning o'zaro kelishuvi bilan tartibga solinadi; Universitet ushbu kelishuvning bajarilishi bo'yicha hech qanday majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.	3.7.1. Obligations between the Student and the Payer are governed by their separate mutual agreement, for the performance of which the University assumes no obligation.
4. O'QISH UCHUN TO'LOV TARTIBI VA SHARTLARI	**4. TERMS AND PROCEDURE OF TUITION PAYMENT**
4.1. O'qish uchun to'lov (3.2.8-bandni hisobga olgan holda) O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan milliy valyutada (UZS), xalqaro talabalar tomonidan AQSh dollarida Universitetning bank hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan va/yoki qonunchilikda ruxsat etilgan boshqa usulda amalga oshiriladi.	4.1. Taking into account clause 3.2.8, tuition is paid by citizens of the Republic of Uzbekistan in national currency (UZS) and by international students in USD, by transfer to the University's bank account and/or in any other way permitted by law.
4.2. Bir semestr uchun o'qish to'lovi miqdori: O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun – Mahalliy abituriyentlar uchun qabul qo'llanmasining 11-bandi «O'qish to'lovi»ga muvofiq (https://tmuni.org/local-students/); xalqaro talabalar uchun – qabul yili uchun https://tmuni.org/tuition-fees/ sahifasida e'lon qilingan miqdorda belgilanadi.	4.2. The tuition fee for one semester is determined: for citizens of the Republic of Uzbekistan – in accordance with clause 11 “Tuition Fee” of the Admission Guide for Local Applicants (https://tmuni.org/local-students/); for international students – as published at https://tmuni.org/tuition-fees/ for the year of enrollment.
4.3. O'quv yili uchun o'qish to'lovi miqdori ushbu o'quv yili boshlanganda qat'iy belgilanadi. Universitet keyingi o'quv yili uchun to'lov miqdorini 15 (o'n besh) foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda oshirishga haqli; yangi miqdor 1 iyungacha Saytda e'lon qilinadi va Talabalarga korporativ elektron pochta orqali o'quv yili boshlanishidan kamida 30	4.3. The tuition fee for an academic year is fixed when that year starts. The University may increase the fee for the next academic year by no more than 15% (fifteen percent); the new fee is published on the Site by 1 June and notified to Students by corporate e-mail at least 30 (thirty) calendar days before the academic year starts. A

(o'ttiz) kalendar kun oldin xabar qilinadi. Oshirishni qabul qilmagan Talaba yangi o'quv yili boshlanguniga qadar Ofertani bekor qilishi mumkin; bunda ushbu o'quv yili uchun amalga oshirilgan to'lovlar to'liq qaytariladi.	Student who does not accept the increase may terminate the Offer before the new academic year starts, with a full refund of payments made for that year.
4.4. To'lovni amalga oshirishda Talaba va/yoki To'lovchi to'lov hujjatlarida Talabaning to'liq ismi-sharifi, o'qiyotgan fakulteti, pasport seriyasi va raqamini ko'rsatishi shart.	4.4. When paying, the Student and/or the Payer must indicate in the payment documents the Student's full name, faculty, and passport series and number.
4.5. Agar Talaba qoniqarsiz natijalar sababli bir yoki bir nechta kursdan o'ta olmasa, o'qish to'lovi quyidagicha to'lanadi: 4.5.1. agar Talaba bir semestrda 12 (o'n ikki) kreditdan kam olsa, olingan akademik kreditlar soniga qarab to'laydi. Bitta kredit qiymati 1 000 000 (bir million) so'm; 4.5.2. agar Talaba bir semestrda 12 (o'n ikki) yoki undan ko'p kredit olsa, Qabul qo'llanmasida belgilangan bir semestr uchun to'liq to'lovni to'laydi.	4.5. If the Student fails one or more courses due to unsatisfactory results, tuition is paid as follows: 4.5.1. if the Student takes fewer than 12 (twelve) credits per semester, he/she pays according to the number of academic credits taken. The cost of one credit is 1,000,000 (one million) UZS; 4.5.2. if the Student takes 12 (twelve) or more credits per semester, he/she shall pay the full semester fee set in the Admission Guide.
4.6. O'qish uchun to'lov quyidagi muddatlardan kechiktirmay amalga oshiriladi: 4.6.1. Talaba va/yoki To'lovchi kirish imtihonlari natijalari e'lon qilinganidan so'ng 14 (o'n to'rt) kalendar kun ichida birinchi semestr to'lovining 20 (yigirma) foizi miqdorida joyni band qilish to'lovini amalga oshiradi. Ushbu to'lov kvota doirasidagi o'quv joyini Talaba uchun band qilish va uni boshqa abituriyentlarga yopish xizmati uchun haq hisoblanadi, Ofertaning akseptini bildiradi, Talabani o'qishga qabul qilish to'g'risidagi buyruq uchun asos bo'ladi, shuningdek darsliklar xarid qilish, Google Classroom'da shaxsiy kabinet yaratish hamda Universitet elektron kutubxonasi va boshqa onlayn materiallaridan foydalanish imkonini beradi. Joyni band qilish to'lovi birinchi semestr to'lovi hisobiga o'tkaziladi. Qabul to'g'risidagi buyruq chiqqunga qadar To'lovchining yozma arizasiga ko'ra ushbu to'lov 14 (o'n to'rt) kalendar kun ichida qaytariladi; buyruq kuchga kirgandan keyin qaytarilmaydi; 4.6.2. birinchi semestr uchun qolgan summa semestr boshlanishidan 14 (o'n to'rt) kalendar kun oldin to'lanadi; 4.6.3. keyingi semestrlar uchun to'lov har bir semestr boshlanishidan 14 (o'n to'rt) kalendar kun oldin to'lanadi. Semestrlarning boshlanish sanalari Saytda e'lon qilinadi.	4.6. Tuition is paid no later than the following deadlines: 4.6.1. within 14 (fourteen) calendar days after the announcement of entrance examination results, the Student and/or the Payer pays a seat reservation fee equal to 20% (twenty percent) of the first semester fee. This fee is the price of the service of reserving the contract-based seat within the quota for the Student and closing it to other applicants; it constitutes acceptance of the Offer, serves as the basis for the order on enrollment of the Student, and provides for the procurement of textbooks, creation of a personal account in Google Classroom and access to the University's electronic library and other online materials. The seat reservation fee is credited towards the first semester fee. Before the enrollment order is issued, the fee is refunded within 14 (fourteen) calendar days upon the Payer's written application; after the enrollment order enters into force it is not refundable; 4.6.2. the remaining amount for the first semester is paid 14 (fourteen) calendar days before the semester starts; 4.6.3. for subsequent semesters, tuition is paid 14 (fourteen) calendar days before each semester starts. Semester start dates are published on the Site.
4.7. Har bir semestr yakunidagi akademik ko'rsatkichlar asosida, 3.1.3, 3.1.4 va 3.2.8-bandlarga hamda Qabul nizomiga muvofiq, Talaba keyingi semestr uchun to'lovdan to'liq yoki qisman ozod qilinishi mumkin. Ozod qilish faqat bitta semestr uchun amal qiladi.	4.7. Based on academic performance at the end of each semester, in accordance with clauses 3.1.3, 3.1.4 and 3.2.8 and the Admission Regulation, the Student may be fully or partially exempted from the fee for the next semester. The exemption applies to one semester only.
4.8. Talabani keyingi kursga o'tkazish to'g'risidagi buyruq faqat oldingi kurs muvaffaqiyatli tamomlangandan, oldingi kurs uchun to'lov to'liq amalga oshirilgandan va semestr uchun to'lov 4.6-bandda belgilangan muddatlarda to'langandan keyin rasmiylashtiriladi.	4.8. The order on transfer of the Student to the next level is issued only after successful completion of the previous level, full payment for the previous level, and payment of tuition for the semester within the deadlines in clause 4.6.

4.9. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 707-moddasiga muvofiq, Talaba Ofertani o'z tashabbusi bilan bekor qilganda xizmatlarning belgilangan narxi to'liq to'lanadi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq Taraflar semestrni bo'linmas akademik xizmat birligi deb tan oladilar: o'qish to'lovi kunlar yoki oylar uchun emas, balki butun semestr uchun belgilanadi va uni qisman to'lanadigan davrlarga bo'lish mumkin emas. Taraflar e'tirof etadilarki, Universitet professor-o'qituvchilar bilan mehnat shartnomalarini butun o'quv yiliga tuzadi va talabalarni qabul qilish yiliga bir marta amalga oshiriladi; shu sababli bo'shagan o'quv joyini o'quv yili davomida boshqa talaba bilan to'ldirish mumkin emas. Semestr boshlangan kundan e'tiboran Universitetning ushbu Talaba bo'yicha haqiqiy xarajatlari (semestr uchun shartnoma asosida jalb qilingan professor-o'qituvchilar, band qilingan o'quv joyi, o'quv resurslari) Taraflar kelishuviga ko'ra semestr uchun to'lovning to'liq miqdoriga teng deb hisoblanadi va bu to'lov qaytarilmaydi. Haqiqiy xarajatlar Universitetning har bir semestr uchun tasdiqlangan xarajatlar smetasi bilan tasdiqlanadi. Bundan quyidagilar mustasno:	4.9. In accordance with Article 707 of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, upon termination of the Offer at the Student's initiative the established price of the services is payable in full. In accordance with Article 31 of the Law of the Republic of Uzbekistan “On Education”, the Parties recognize the semester as an indivisible unit of academic service: the tuition fee is set for the whole semester, not per day or month, and cannot be divided into partially payable periods. The Parties acknowledge that the University concludes employment contracts with teaching staff for the whole academic year and admits students once a year; therefore a vacated seat cannot be filled by another student during the academic year. The Parties agree that from the first day of the semester the University's actual expenses for the Student (teaching staff contracted for the semester, the reserved seat, learning resources) equal the full semester fee, and it is not refunded. The actual expenses are confirmed by the University's cost estimate approved for each semester. Exceptions:
4.9.1. Universitetga birinchi marta qabul qilingan Talaba o'qishining birinchi semestri boshlanganidan keyin 7 (yetti) kalendar kun ichida Ofertani yozma ravishda bekor qilsa, Universitet haqiqiy xarajatlari sifatida ushbu semestr uchun belgilangan to'liq to'lov miqdorining 50 (ellik) foizini ushlab qoladi; to'langan summaning shu miqdordan ortiq qismi qaytariladi. Agar to'langan summa semestr to'lovining 50 foizidan oshmasa, to'lov qaytarilmaydi. Ushbu band keyingi semestrlarga, keyingi kurs talabalariga hamda kursni qayta o'qiyotgan yoki qayta tiklangan talabalarga nisbatan qo'llanilmaydi;	4.9.1. if a Student enrolled at the University for the first time terminates the Offer in writing within 7 (seven) calendar days after the start of his/her first semester of study, the University retains 50% (fifty percent) of the full fee set for that semester as its actual expenses, and any amount paid above that is refunded. If the amount paid does not exceed 50% of the semester fee, nothing is refunded. This clause does not apply to subsequent semesters, to Students of subsequent years, or to Students repeating a year or reinstated after expulsion;
4.9.2. boshlanmagan kelgusi semestrlar uchun oldindan to'langan summalar bank xarajatlari chegirilgan holda qaytariladi; biroq Talaba 4.6.3-bandda belgilangan to'lov muddatidan keyin o'qishdan voz kechsa, Universitet haqiqiy xarajatlari sifatida ushbu semestr to'lovining 20 (yigirma) foizini ushlab qoladi;	4.9.2. amounts paid in advance for semesters that have not started are refunded less bank charges; however, if the Student withdraws after the payment deadline in clause 4.6.3, the University retains 20% (twenty percent) of that semester's fee as its actual expenses;
4.9.3. Universitet Ofertani Talaba sababchi bo'lmagan holatlar tufayli (ta'lim dasturining yopilishi, litsenziyaning to'xtatilishi) bekor qilsa, semestrning foydalanilmagan qismi uchun to'lov qaytariladi;	4.9.3. if the University terminates the Offer for reasons not caused by the Student (closure of the programme, suspension of the licence), tuition for the unused part of the semester is refunded;
4.9.4. pul qaytarish o'rniga Talaba to'langan summani akademik ta'tildan qaytgandan keyin o'qishni davom ettirish uchun kredit sifatida saqlab qolishni yoki uni Universitetda o'qiyotgan tug'ishgan aka-ukasi yoki opa-singlisining o'qish to'loviga o'tkazishni tanlashi mumkin.	4.9.4. instead of a cash refund, the Student may choose to keep the amount paid as a credit for continuing studies after academic leave, or to transfer it to the tuition of a sibling studying at the University.
4.10. Talaba o'quv intizomi va Universitet ichki tartib-qoidalarini buzganligi, darslarni uzrli sabablarsiz qoldirganligi, o'qish uchun to'lovni o'z vaqtida amalga oshirmaganligi, akademik o'zlashtirmaganligi yoki 5.3.4–5.3.5-bandlarda ko'rsatilgan boshqa asoslarga ko'ra o'qishdan chetlatilganda, shuningdek akademik	4.10. If the Student is expelled for breach of academic discipline or the University's internal regulations, unexcused absence, failure to pay tuition on time, academic failure or on the other grounds in clauses 5.3.4–5.3.5, or is held back to repeat a year due to

qarzdorligi sababli kursdan qoldirilganda (kursni qayta o'qishga qoldirilganda), tegishli semestr uchun amalga oshirilgan to'lov qaytarilmaydi.	academic debt, the payment made for the relevant semester is not refunded.
4.11. O'qish uchun to'lovlarni o'tkazish bilan bog'liq barcha bank xarajatlari Talaba va/yoki To'lovchi hisobidan qoplanadi.	4.11. All bank charges associated with the transfer of tuition are borne by the Student and/or the Payer.
4.12. Ushbu Oferta bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi bilan tasdiqlanadi. Hisob-faktura Talaba nomiga, To'lovchi yuridik shaxs bo'lgan taqdirda esa To'lovchi nomiga rasmiylashtiriladi.	4.12. Services provided under this Offer are confirmed by an invoice and a certificate of completion. The invoice is issued in the name of the Student or, if the Payer is a legal entity, in the name of the Payer.
4.13. Hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi har bir semestr uchun semestr yakunlanganidan keyin 40 (qirq) kalendar kun ichida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda bir tomonlama yuboriladi.	4.13. The invoice and the certificate of completion for each semester are sent unilaterally within 40 (forty) calendar days after the semester ends, in the manner prescribed by the legislation of the Republic of Uzbekistan.
4.14. AQSh dollaridagi to'lovlar uchun ko'rsatmalar (SWIFT formati): 70-maydon (to'lov ma'lumotlari): to'lov | To'lovchining to'liq ismi | pasport seriyasi va raqami 71A-maydon (komissiya): OUR	4.14. USD payment instructions (SWIFT format): Field 70 (remittance information): fee | customer name | passport series and number Field 71A (details of charges): OUR
4.15. 4.6.1-banddagi to'lovni amalga oshirishda yoki bo'lib-bo'lib to'lashni tanlaganda, To'lovchi Universitetning to'lov provayderi orqali bank kartasini bog'laydi va shu orqali Universitetga muddati o'tgan o'qish to'lovi va penyalarni qo'shimcha roziliksiz ushbu kartadan yechib olishga ruxsat beradi. To'lov 10 (o'n) ish kunidan ortiq kechiktirilganda Universitet muddati o'tgan summani yechib oladi va yechib olingan kuni To'lovchini SMS yoki elektron pochta orqali xabardor qiladi. Bo'lib-bo'lib yoki kechiktirib to'lash faqat kartasini bog'lagan To'lovchilarga beriladi. Bog'langan karta almashtirilgan, bloklangan yoki unda mablag' yetarli bo'lmagan taqdirda, To'lovchi 5 (besh) ish kuni ichida amal qiluvchi kartani bog'lashi shart; aks holda 3.2.4–3.2.6 va 6.2-bandlar qo'llaniladi. Ofertani akseptlash orqali Talaba va To'lovchi (shu jumladan voyaga yetmagan Talaba uchun javobgar shaxs) o'qish to'lovi va penyalar belgilangan muddatda to'lanmagan taqdirda ushbu summalarni ular nomidagi, to'lov provayderi orqali bog'langan bank kartalaridan yechib olishga o'z roziligini beradi.	4.15. When paying under clause 4.6.1 or choosing to pay in instalments, the Payer links a bank card through the University's payment provider and thereby authorizes the University to debit overdue tuition and penalties from that card without further consent. If a payment is more than 10 (ten) working days overdue, the University debits the overdue amount and informs the Payer by SMS or e-mail on the day of the debit. Payment in instalments or with deferral is available only to Payers who have linked a card. If the linked card is replaced, blocked or has insufficient funds, the Payer must link a valid card within 5 (five) working days; otherwise clauses 3.2.4–3.2.6 and 6.2 apply. By accepting the Offer, the Student and the Payer (including the person responsible for a Student who is a minor) consent to the debiting of unpaid tuition and penalties from bank cards in their name linked through the payment provider if such amounts are not paid by the due date.
5. OFERTANI BEKOR QILISH VA TALABANI O'QISHDAN CHETLATISH	**5. TERMINATION OF THE OFFER AND EXPULSION OF THE STUDENT**
5.1. Ushbu Oferta quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin: 5.1.1. 5.3-bandga muvofiq Talaba o'qishdan chetlatilganda; 5.1.2. Taraflardan biri Oferta shartlarini bajarmaganda; 5.1.3. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.	5.1. This Offer may be terminated in the following cases: 5.1.1. expulsion of the Student in accordance with clause 5.3; 5.1.2. breach of the terms of the Offer by any Party; 5.1.3. other cases provided by the legislation of the Republic of Uzbekistan.

5.2. Oferta Talaba tashabbusi bilan bekor qilinganda, to'langan summalar 4.9-bandga muvofiq qaytariladi.	5.2. Upon termination of the Offer at the Student's initiative, amounts paid are refunded in accordance with clause 4.9.
5.3. Talaba quyidagi hollarda belgilangan tartibda Universitetdan chetlatilishi mumkin: 5.3.1. o'z xohishiga ko'ra; 5.3.2. akademik o'zlashtirmaganligi uchun; 5.3.3. odob-axloq qoidalari, Akademik nizom va boshqa ichki qoidalarni buzganligi, shu jumladan bir semestrdagi umumiy akademik soatlarning 1/4 (25%) qismidan ko'prog'iga uzrsiz qatnashmaganligi uchun; 5.3.4. Universitetda o'qitish sifatiga va Universitet faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan yoki Taraflarning ushbu Oferta bo'yicha majburiyatlarini bajarishiga xavf tug'diradigan ijtimoiy noto'g'ri xatti-harakatlar uchun; 5.3.5. Talabaga o'qishni davom ettirish imkoniyatini istisno etadigan jazo tayinlangan sud hukmi qonuniy kuchga kirganda, shuningdek sud qarori bilan Talaba ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasasiga yuborilganda.	5.3. The Student may be expelled from the University in the established procedure in the following cases: 5.3.1. at his/her own will; 5.3.2. for academic failure; 5.3.3. for violation of the code of conduct, the Academic Regulation and other internal regulations, including unexcused absence from more than 1/4 (25%) of total academic hours per semester; 5.3.4. for antisocial misconduct that directly affects the quality of teaching and the operation of the University, or endangers the performance of the Parties' obligations under this Offer; 5.3.5. upon entry into force of a court verdict imposing a punishment that excludes the possibility of continuing studies, and upon referral of the Student by court decision to a specialized medical institution.
6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI	**6. LIABILITY OF THE PARTIES**
6.1. Ushbu Oferta bo'yicha majburiyatlar bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda Taraflar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.	6.1. In case of non-performance or improper performance of obligations under this Offer, the Parties are liable in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan.
6.2. 4.6-bandda belgilangan to'lov muddatlari buzilganda, Talaba va/yoki To'lovchi kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanmagan summaning 0,1 foizi miqdorida, biroq kechiktirilgan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.	6.2. In case of delay in payment in breach of clause 4.6, the Student and/or the Payer shall pay a penalty of 0.1% of the overdue amount for each day of delay, but not more than 50% of the overdue amount.
6.3. Penya to'lanishi Taraflarni ushbu Oferta bo'yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.	6.3. Payment of the penalty does not release the Parties from performance of their obligations under this Offer.
6.4. Talaba bino, asbob-uskunalar, o'quv vositalari va boshqa mulkka moddiy zarar yetkazgan taqdirda, yetkazilgan zararning to'liq qiymatini Universitetga qoplaydi.	6.4. In case of material damage caused by the Student to buildings, equipment, learning materials or other property, the Student shall reimburse the University for the full cost of the damage.
6.5. Talaba Oferta shartlarini buzgan taqdirda, uning Universitetga kirishi cheklanadi, akademik xizmatlar ko'rsatish hamda ma'lumotnoma va rasmiy xatlar berish to'xtatiladi.	6.5. In case of breach of the Offer by the Student, the Student's access to the University is restricted, academic services are stopped and the issue of information and official letters is suspended.
6.6. Talabaning o'qishdan vaqtincha yoki butunlay chetlatilishi Talaba va/yoki To'lovchini ko'rsatilgan akademik xizmatlar uchun to'lov majburiyatidan ozod qilmaydi.	6.6. Suspension or expulsion of the Student does not release the Student and/or the Payer from the obligation to pay for academic services provided.
6.7. Talaba va/yoki To'lovchi muddati o'tgan summalarni undirish bilan bog'liq Universitetning hujjatlar bilan tasdiqlangan xarajatlarini, shu jumladan yuridik xizmatlar va sud xarajatlarini qoplaydi.	6.7. The Student and/or the Payer shall reimburse the University's documented costs of recovering overdue amounts, including legal fees and court costs.

6.8. Universitet bilvosita zararlar (boy berilgan foyda, ish takliflaridan mahrum bo'lish va shu kabilar) uchun javobgar emas. Universitet to'g'ridan-to'g'ri zarar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi.	6.8. The University is not liable for indirect losses (lost earnings, lost job offers and the like). The University is liable for direct damage in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan.
6.9. Universitet Talabaning muayyan baholar, stipendiya, ishga joylashish yoki boshqa ta'lim tashkilotiga o'qishini ko'chirish natijalarini kafolatlamaydi; bu natijalar Talabaning o'z o'zlashtirishiga bog'liq.	6.9. The University does not guarantee particular grades, scholarships, employment or the outcome of a transfer to another institution; these results depend on the Student's own performance.
7. FORS-MAJOR	**7. FORCE MAJEURE**
7.1. Agar ushbu Oferta bo'yicha biron-bir majburiyatning bajarilishiga (to'lov majburiyatlaridan tashqari) tabiiy ofat, davlat organlarining harakati yoki harakatsizligi, urush (e'lon qilingan yoki qilinmagan), harbiy harakatlar, qaroqchilik, har qanday Taraf binosida yoki boshqa joyda yuz bergan mehnat nizolari (shu jumladan ishni sekinlashtirish va qoidalar bo'yicha ishlash), yong'in, portlash yoki tegishli Tarafning oqilona nazoratidan tashqaridagi boshqa sabab (yuqoridagilarga o'xshash yoki o'xshash bo'lmagan) to'sqinlik qilsa, uni cheklasa yoki kechiktirsa, ushbu Taraf shunday to'siq, cheklov yoki kechikish darajasida bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod qilinadi (to'lov majburiyatlari bundan mustasno). Bunday holatlarga asoslanib ozod qilinishni talab qiluvchi Taraf boshqa Tarafni ularning boshlanishi va tugashi haqida darhol yozma ravishda xabardor qilishi shart.	7.1. If the performance of any obligation under this Offer (other than payment obligations) is prevented, hindered, restricted or delayed by any act of God, act or omission of government, war (declared or not), hostilities, piracy, industrial dispute (including go-slow and work-to-rule) at either Party's premises or elsewhere, fire, explosion or any other cause (whether similar or not to the above) beyond the reasonable control of the affected Party, that Party is excused from, and not liable for, failure in performance (except payment obligations) to the extent of such prevention, hindrance, restriction or delay. The Party claiming relief shall notify the other Party in writing without delay of the occurrence and cessation of such circumstances.
7.2. Fors-major holatlarida, shuningdek davlat organlarining qarorlariga ko'ra Universitet mashg'ulotlarni masofaviy (onlayn) shaklga o'tkazishi mumkin. Bu Oferta bo'yicha majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi hisoblanadi va to'lov miqdorini kamaytirish yoki to'lovni qaytarish uchun asos bo'lmaydi.	7.2. In force majeure circumstances, or by decision of state authorities, the University may move classes to distance (online) form. This constitutes proper performance of obligations under the Offer and is not grounds for reducing or refunding the fee.
8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI	**8. DISPUTE RESOLUTION**
8.1. Taraflar ushbu Ofertadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq barcha nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal qilishga harakat qiladi. Sudga murojaat qilishdan oldin nizo yozma da'vo (pretenziya) tartibida ko'rib chiqiladi; da'voni olgan Taraf unga 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida javob beradi.	8.1. The Parties shall make their best efforts to settle amicably all disputes and differences arising out of or in connection with this Offer. Before going to court, a dispute shall be submitted as a written claim; the Party receiving the claim shall respond within 30 (thirty) calendar days.
8.2. Ushbu Ofertadan kelib chiqadigan nizolar, do'stona muzokaralar orqali hal etilmasa, Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumanidagi vakolatli sudda, yuridik shaxs bo'lgan To'lovchi bilan nizolar esa Toshkent shahridagi vakolatli iqtisodiy sudda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ko'rib chiqiladi.	8.2. Disputes arising out of this Offer that are not settled amicably shall be heard by the competent court of Mirzo Ulugbek district, Tashkent, and disputes with a Payer who is a legal entity by the competent economic court of Tashkent, in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan.
9. YAKUNIY QOIDALAR	**9. GENERAL PROVISIONS**
9.1. Oferta 1.2-bandga muvofiq 4.6.1-bandda ko'rsatilgan to'lov amalga oshirilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va Taraflar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi. Talabaga nisbatan 4.6.1-banddagi to'lov amalga oshirilgan sanada amalda bo'lgan Oferta versiyasi	9.1. The Offer enters into force in accordance with clause 1.2 upon the payment under clause 4.6.1 and remains valid until the Parties fully perform their obligations. The Student is governed by the version of the Offer in force on the date of the payment under clause 4.6.1, subject to

qo'llaniladi, 4.3 va 9.2-bandlarga muvofiq kiritilgan o'zgartirishlar bundan mustasno. Oferta o'zbek va ingliz tillarida tuzilgan; nomuvofiqlik bo'lsa, o'zbek tilidagi matn ustuvor hisoblanadi.	amendments made under clauses 4.3 and 9.2. The Offer is made in Uzbek and English; in case of any discrepancy, the Uzbek version prevails.
9.2. Universitet Ofertaga uning yangi versiyasini kuchga kirish sanasi bilan kamida 30 (o'ttiz) kalendar kun oldin Saytda e'lon qilish orqali o'zgartirish kiritishi mumkin. E'lon qilingan kuni Universitet Talabalarni korporativ elektron pochta orqali xabardor qiladi; qog'oz nusxalar yoki alohida imzolar talab qilinmaydi. Kuchga kirish sanasidan keyin o'qish uchun har qanday to'lovning amalga oshirilishi Talaba va To'lovchi tomonidan o'zgartirilgan Oferta qabul qilinganligini bildiradi. O'zgartirishlarni qabul qilmagan Talaba kuchga kirish sanasiga qadar Ofertani 4.9-bandga muvofiq jarimasiz bekor qilishi mumkin. O'zgartirishlar kuchga kirish sanasiga qadar to'langan davrlarga nisbatan qo'llanilmaydi, ichki tartib-qoidalar va to'lov rekvizitlaridagi o'zgarishlar bundan mustasno. Ofertaning barcha versiyalari kuchga kirish sanalari bilan Saytda saqlanadi.	9.2. The University may amend this Offer by publishing a new version on the Site with its effective date at least 30 (thirty) calendar days in advance. On the day of publication the University notifies Students by e-mail to their corporate address; no paper copies or individual signatures are required. Payment of any tuition amount after the effective date constitutes acceptance of the amended Offer by the Student and the Payer. A Student who does not accept the amendments may terminate the Offer before the effective date under clause 4.9 without penalty. Amendments do not apply to periods already paid for before the effective date, except for changes to internal regulations and payment details. All versions of the Offer are kept on the Site with their effective dates.
9.3. Manzillar va boshqa rekvizitlar o'zgargan taqdirda Taraflar bu haqda boshqa Tarafni darhol yozma ravishda xabardor qilishi shart.	9.3. In case of change of address or other details, the Parties shall immediately notify the other Party in writing.
9.4. Talaba va/yoki To'lovchi ushbu Ofertaning to'lov shartlarini bajarmagan taqdirda, Talaba kvota doirasida egallagan o'quv joyini yo'qotadi va Universitet o'z xohishiga ko'ra ushbu joyni to'lov-kontrakt asosida boshqa nomzodga taklif qilish huquqiga ega.	9.4. The Student irrevocably agrees that if the Student and/or the Payer fails to meet the payment terms of this Offer, the Student loses his/her quota place and the University may, at its discretion, offer the place to another candidate on a tuition fee basis.
9.5. Talabaning korporativ elektron pochtasiga yoki To'lovchining to'lov vaqtida ko'rsatgan elektron pochtasi yoki telefon raqamiga yuborilgan xabarnoma keyingi ish kunida olingan hisoblanadi.	9.5. A notice sent to the Student's corporate e-mail, or to the e-mail or telephone number given by the Payer at payment, is deemed received on the next working day.
9.6. Ofertani akseptlash orqali Talaba va To'lovchi Universitetga O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq ularning shaxsga doir ma'lumotlarini (shu jumladan pasport ma'lumotlarini) qabul, ta'lim, to'lov va hisobot maqsadlarida qayta ishlashga rozilik beradi. Voyaga yetmagan Talabaning shaxsga doir ma'lumotlarini qayta ishlashga rozilikni Ofertani akseptlagan ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakili yozma shaklda, shu jumladan elektron hujjat tarzida beradi.	9.6. By accepting the Offer, the Student and the Payer consent to the University processing their personal data (including passport data) for admission, education, payment and reporting purposes in accordance with the Law of the Republic of Uzbekistan “On Personal Data”. For a Student who is a minor, consent to the processing of his/her personal data is given in writing, including in electronic form, by the parent or other legal representative who accepts the Offer.
9.7. Ofertani akseptlash orqali Talaba va To'lovchi Oferta, xususan 4.3, 4.9, 4.10, 4.15, 6.2 va 9.2-bandlar bilan to'liq tanishganliklarini, ularning mazmunini tushunganliklarini va ularni ixtiyoriy ravishda qabul qilganliklarini tasdiqlaydi. Oferta akseptdan oldin Saytda doimiy ochiq bo'lgan va Talaba hamda To'lovchi uni o'rganish imkoniyatiga ega bo'lgan.	9.7. By accepting the Offer, the Student and the Payer confirm that they have fully read the Offer, in particular clauses 4.3, 4.9, 4.10, 4.15, 6.2 and 9.2, understood their content and accepted them voluntarily. The Offer was publicly available on the Site before acceptance, and the Student and the Payer had the opportunity to study it.
9.8. Ofertaning biron-bir bandi haqiqiy emas deb topilishi uning qolgan bandlarining haqiqiyligiga ta'sir qilmaydi.	9.8. If any clause of the Offer is found invalid, this does not affect the validity of the remaining clauses. Such

Bunday band qonunchilikka muvofiq bo'lgan va Taraflarning dastlabki maqsadiga eng yaqin bo'lgan qoida bilan almashtirilgan hisoblanadi.	clause is deemed replaced by a lawful provision closest to the Parties' original intent.
9.9. Qabul nizomi (Qabul qo'llanmasi), Akademik nizom va Universitetning boshqa ichki hujjatlari Oferta bilan birgalikda qo'llaniladi. Ular o'rtasida nomuvofiqlik bo'lsa, Oferta ustuvor hisoblanadi.	9.9. The Admission Regulation (Admission Guide), the Academic Regulation and other internal documents of the University apply together with the Offer. In case of inconsistency, the Offer prevails.
10. UNIVERSITETNING BANK REKVIZITLARI VA YURIDIK MANZILI	**10. BANK DETAILS AND LEGAL ADDRESS OF THE UNIVERSITY**
“Tashkent Metropolitan University” MChJ Yuridik manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 209a. STIR: 306954192 To'lov rekvizitlari: Hisob raqami (UZS): 20208000405154401001 Hisob raqami (AQSh dollari): 20208840305154401001 Hisob raqami (RUB): 20208643405154401001 «Kapitalbank» Aksiyadorlik Tijorat Banki Amaliyot Boshqarmasi MFO: 01158; STIR: 203591761; IFUT kodi: 64190 SWIFT: KACHUZ22XXX Rektor Djalilov B.Sh.	**“Tashkent Metropolitan University” LLC** Legal address: 209a Parkent street, Mirzo Ulugbek district, Tashkent city, Republic of Uzbekistan TIN: 306954192 Payment details: Bank account in UZS: 20208000405154401001 Bank account in USD: 20208840305154401001 Bank account in RUB: 20208643405154401001 Operations department of joint-stock commercial bank «Kapitalbank» MFO: 01158; TIN: 203591761; OKED: 64190 SWIFT: KACHUZ22XXX Rector _____ Djalilov B.Sh.

TO'LOV KVITANSIYASI	PAYMENT RECEIPT
QABUL QILUVCHI: “Tashkent Metropolitan University” MChJ Yuridik manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Parkent ko'chasi, 209a. Hisob raqami (UZS): 20208000405154401001 «Kapitalbank» ATB Amaliyot Boshqarmasi MFO: 01158; Bank STIR: 203591761; IFUT kodi: 64190	**TO'LOVCHI:** _____ To'lovchining F.I.O. / nomi Tel.: _____ **TO'LOV TAFSILOTLARI:** _____ Talabaning F.I.O. Pasport raqami: _____ O'quv yo'nalishi: _____ _____ kurs talabasi To'lov summasi: _____ UZS (yozma ravishda): _____ UZS